MARKAZIY OSIYO HAMKORLIGINING YANGI BOSQICHI

Mamatqulov Sardor

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiyasi Universitetining

“Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar”

yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning so‘nggi yillarda shakllanayotgan yangi bosqichi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor mintaqa ichidagi savdo va investitsiya aloqalarining kengayishi, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, ilgari ziddiyat manbai bo‘lgan chegara masalalarining bosqichma-bosqich hamkorlik vositasiga aylanishi hamda transport bog‘liqligining rivojlanishiga qaratiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning geografik jihatdan “berk” hudud sifatidagi an’anaviy talqinidan tranzit va mintaqalararo bog‘lovchi makon sifatidagi yangi qarashga o‘tish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Maqolada suv va energetika masalalarida ham manfaatlar qarama-qarshiligidan o‘zaro maqbul yechimlarni izlashga asoslangan pragmatik yondashuv kuchayayotgani yoritiladi. Tahlil natijasida mintaqadagi yangi hamkorlik modeli faqat siyosiy muloqot bilan cheklanmay, savdo, infratuzilma, transport, chegaralar, suv va energetika kabi amaliy sohalarda o‘zaro manfaatdorlikka tayangan holda rivojlanayotgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, savdo, investitsiya, iqtisodiy bog‘liqlik, chegaralar, transport koridorlari, tranzit, suv resurslari, energetika, pragmatik hamkorlik.

Kirish

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan keyingi davrda mintaqaviy hamkorlik bir xil sur’atda rivojlanmadi. Dastlab davlatlarning asosiy e’tibori milliy davlatchilik institutlarini shakllantirish, iqtisodiy suverenitetni

mustahkamlash va mustaqil tashqi siyosat olib borishga qaratildi. Natijada mintaqaviy manfaatlardan ko‘ra milliy ustuvorliklar ko‘proq ahamiyat kasb etdi. Chegara, suv resurslari, energetika, transport yo‘llari va savdo tartiblari kabi masalalar esa ayrim hollarda davlatlarni birlashtiruvchi emas, aksincha, ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi.

So‘nggi yillarda esa Markaziy Osiyodagi vaziyat sezilarli darajada o‘zgara boshladi. Davlatlar o‘rtasidagi siyosiy muloqotning faollashishi avval yechimi murakkab deb hisoblangan masalalarni amaliy muzokaralar orqali hal qilish imkonini kengaytirdi. Eng muhimi, hamkorlik tobora umumiy siyosiy bayonotlardan aniq iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarga o‘tmoqda. Savdo hajmining oshishi, o‘zaro investitsiyalarning ko‘payishi, yangi transport yo‘nalishlarining rivojlantirilishi va chegara punktlarining ochilishi davlatlarning bir-biriga iqtisodiy jihatdan ko‘proq bog‘lanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon mintaqada hamkorlikni davom ettirish uchun siyosiy manfaat bilan bir qatorda iqtisodiy manfaatni ham shakllantirmoqda.

Yangi bosqichning muhim xususiyatlaridan biri chegaralarga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishidir. Ilgari chegara masalalari, ularni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlarining yopilishi yoki fuqarolar harakatiga qo‘yilgan cheklovlar mintaqadagi asosiy muammolardan biri edi. Hozir esa chegaralar faqat davlat suverenitetini ajratib turuvchi chiziq emas, balki savdo, turizm, va hududlararo aloqalarni rivojlantirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Shu sababli chegaraoldi savdosining kengayishi va transport o‘tish punktlarining faol ishlashi mintaqaviy hamkorlikning kundalik hayotda seziladigan natijalaridan biriga aylanmoqda.

Transport masalasi ham Markaziy Osiyoning rivojlanish istiqbollarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda. Uzoq vaqt davomida mintaqaning dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati yo‘qligi uning asosiy geografik cheklovi sifatida baholangan. Bugungi kunda esa ushbu holatga boshqacha yondashuv shakllanmoqda. Markaziy Osiyoning Yevropa va Osiyo, Rossiya va Janubiy

Osiyo, Xitoy va Yaqin Sharq o‘rtasida joylashgani transport va logistika nuqtayi nazaridan strategik imkoniyat sifatida ko‘rilmoqda. Yangi avtomobil va temir yo‘l yo‘nalishlari, xalqaro transport koridorlari va logistika markazlari mintaqani faqat ichki bozorlar majmuasi emas, balki yirik iqtisodiy hududlarni bog‘lovchi tranzit makonga aylantirish imkoniyatini yaratmoqda. Mintaqadagi eng murakkab sohalardan biri bo‘lgan suv va energetika masalalarida ham asta-sekin pragmatik yondashuv kuchaymoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy resurslari va iqtisodiy ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Yuqori oqimdagi davlatlar uchun suv energetik resurs sifatida muhim bo‘lsa, quyi oqimdagi davlatlar uchun u, avvalo, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq. Shu sababli suv va energetika masalalari uzoq vaqt davomida manfaatlar to‘qnashuvi bilan tavsiflangan. Hozirgi sharoitda esa ushbu sohalarni nol yig‘indili raqobat sifatida emas, manfaatlarni muvofiqlashtirish orqali umumiy foyda olish mumkin bo‘lgan yo‘nalish sifatida ko‘rishga intilish kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyodagi hamkorlikning yangi bosqichi avvalgi davrlardan faqat uchrashuvlar soni yoki siyosiy bayonotlarning ko‘payishi bilan farq qilmaydi. Asosiy o‘zgarish davlatlarning o‘zaro bog‘liqlikni asta-sekin tabiiy va zarur rivojlanish omili sifatida qabul qilayotganida ko‘rinadi. Yangi regionalizmning eng ko‘rinadigan natijasi iqtisodiy aloqalarda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdosi aylanmasi 2017-yil yakunida 3 milliard dollardan oshganini qayd etgan. Bu ko‘rsatkich bir yil ichida 20 foizga o‘sgan. O‘sha paytda bu yangi siyosatning dastlabki iqtisodiy natijasi edi. Keyingi yillarda bu tendensiya davom etdi.

2025-yil noyabrida e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi sakkiz yil ichida Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti qariyb *2,5 baravar* oshib, *520 milliard* dollarga yetgan. Tashqi savdo hajmi *253 milliard* dollarga chiqqan. Mintaqa ichidagi o‘zaro savdo esa ikki baravar oshib, qariyb *11 milliard* dollarga yetgan. O‘zaro investitsiyalar 5,6 baravar ko‘paygan. Bu raqamlar regionalizmning iqtisodiy bazasi kengayganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston

misoli bu o‘zgarishni yanada aniq ko‘rsatadi. 2016-yilda O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlashi 2,4 milliard dollar edi. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 7,2 milliard dollarga yetdi. Ya’ni sakkiz yil ichida uch baravar o‘sdi. Markaziy Osiyo hamkorlari bilan tuzilgan qo‘shma korxonalar soni 1 800 dan oshdi. Bu natija faqat eksport va import ortganini anglatmaydi. Ishlab chiqarish zanjirlari va investitsiya aloqalari ham shakllanayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval. Markaziy Osiyodagi iqtisodiy yaqinlashuvning ayrim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**Boshlang‘ich holat**	**So‘nggi holat**	**O‘zgarish**
Markaziy Osiyo umumiy YIM	So‘nggi 8 yil uchun baza	520 mlrd AQSH dollari	Qariyb 2,5 baravar o‘sish
Mintaqaning tashqi savdosi	So‘nggi 8 yil uchun baza	253 mlrd AQSH dollari	2 martadan ziyod o‘sish
Mintaqa ichki o‘zaro savdosi	So‘nggi 8 yil uchun baza	Qariyb 11 mlrd AQSH dollari	2 baravar o‘sish
Mintaqa ichki o‘zaro investitsiyalari	So‘nggi 8 yil uchun baza	-	5,6 baravar o‘sish
O‘zbekistonning MO davlatlari bilan savdosi	2,4 mlrd dollar (2016)	7,2 mlrd dollar (2024)	3 baravar
O‘zbekistondagi MO sheriklari bilan qo‘shma korxonalar	-	1 800 dan ortiq	Ishlab chiqarish aloqalari kengaygan

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sahifasidagi ma’lumotlari asosida tuzildi (Mirziyoyev, 2025).*

Iqtisodiy yaqinlashuvning yana bir belgisi sanoat kooperatsiyasidir. O‘zbekiston-Qirg‘iziston, O‘zbekiston-Tojikiston va Qozog‘iston-Qirg‘iziston qo‘shma investitsiya fondlari ish boshladi. Avtomobilsozlik, elektrotexnika,

to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligida qo‘shma loyihalar ko‘paymoqda. 2025-2027-yillar uchun sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy harakatlar rejasi ham qabul qilingan. Bu jarayon umumiy bozor hali yaratilmagan bo‘lsa ham, mintaqa ichida ishlab chiqarish manfaatlari paydo bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Bibliometrik tahlilda Markaziy Osiyo integratsiyasi haqidagi ilmiy adabiyotlarda uchta yirik mavzu shakllanganini aniqlanadi: iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy rivojlanish va suv resurslarini boshqarish. Transport va logistika esa yangi tez o‘sayotgan tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Bu ilmiy tendensiyaning o‘zi ham mintaqadagi regionalizmning mazmuni o‘zgarganini ko‘rsatadi.

Chegara masalalari Markaziy Osiyoda uzoq vaqt regionalizmning eng qiyin sinovi bo‘lib keldi. Farg‘ona vodiysidagi murakkab chegaralar, anklavlar, yo‘l va suvdan foydalanish masalalari ikki tomonlama aloqalarni muntazam ravishda taranglashtirib turardi. Shu sababli yangi bosqichni baholashda chegaralardagi o‘zgarishlar juda muhim. 2016-yil sentabridan 2021-yil iyuligacha O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar o‘rtasida delimitatsiya va demarkatsiya bo‘yicha muzokaralar ancha jadallashganini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon keyingi yillarda davom etdi. 2025-yil 13-martda Qirg‘iziston va Tojikiston prezidentlari davlat chegarasi bo‘yicha tarixiy bitimni imzoladi. Undan oldingi kelishuvlar 970 kilometrdan ortiq umumiy chegara bo‘yicha uzoq davom etgan bahslarni yakunlashga yo‘l ochdi. Bitim bilan yopilgan transport aloqalarini qayta tiklash ham ko‘zda tutildi. 2025-yil 31-martda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlari uch davlat chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnoma hamda Xo‘jand deklaratsiyasini imzoladi. Rasmiy talqinda bu qadam mintaqadagi o‘zaro chegaralarning huquqiy rasmiylashtirilishini yakunlagan muhim hodisa sifatida baholandi. Odamlarning kundalik hayotidagi o‘zgarish ham regionalizmning muhim ko‘rsatkichidir. 2023-yil sentabridan O‘zbekiston va Qirg‘iziston fuqarolari ID-karta bilan o‘zaro chegaradan o‘ta boshladi. Aviaqatnov, temir yo‘l va avtobus yo‘nalishlari tiklandi yoki kengaydi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida mintaqa ichki turizmining ulushi 80 foizdan oshdi. Bu

ko‘rsatkich regionalizm faqat davlatlar darajasidagi siyosat emasligini ko‘rsatadi. Odamlar harakati uning ijtimoiy bazasini yaratadi.

Transport yo‘llari yangi regionalizmning eng strategik yo‘nalishlaridan biridir. Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi dengiz portlaridan uzoq joylashgan. Shu sababli tranzit xarajatlari yuqori. Ilgari bu holat ko‘proq cheklov sifatida baholanardi. Hozir esa mintaqaning Yevropa, Xitoy, Rossiya, Janubiy Osiyo, Kavkaz va Yaqin Sharq o‘rtasidagi joylashuvi iqtisodiy imkoniyat sifatida talqin qilinmoqda. Sharq-G‘arb va Shimol-Janub yo‘nalishlarini rivojlantirish Markaziy Osiyo uchun umumiy manfaat ekanini ta’kidlanadi. Transkaspiy yo‘lagi, Qozog‘iston-Turkmaniston-Eron temir yo‘li, Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li va Transafg‘on yo‘nalishi bir-birini to‘ldiruvchi tarmoqlar sifatida tilga olinadi.. Bu yondashuvning mohiyati bitta yo‘lakka bog‘lanib qolmaslikdir. Transport bog‘liqligi O‘zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasi va mintaqaviy integratsiya siyosati o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi mezondir. Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li qiymatini taxminan 8 milliard dollar atrofida baholangan loyiha sifatida keltiradi. Loyiha faqat uch davlatga taalluqli emas. U Xitoydan Markaziy Osiyo orqali g‘arbga chiqadigan yo‘llarni diversifikatsiya qilishi mumkin. Transafg‘on temir yo‘li esa Markaziy Osiyoni Pokiston portlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Bu orqali davlatlar o‘z milliy tranzit salohiyatini oshirmoqda hamda bir davlatdagi temir yo‘l yoki chegara punkti qo‘shni davlatning eksport imkoniyatiga ham ta’sir qilmoqda. Ya’ni infratuzilma milliy aktiv bo‘lib qolmoqda, ammo uning iqtisodiy qiymati mintaqaviy tarmoqqa qo‘shilganda ortadi. Bu funksional regionalizmning aniq ko‘rinishidir.

Markaziy Osiyoda suv va energetika masalasi uzoq vaqt yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlari to‘qnashadigan soha bo‘lib keldi. Qirg‘iziston va Tojikiston uchun gidroenergetika muhim. Qozog‘iston, Turkmaniston va O‘zbekiston uchun vegetatsiya davridagi suv ta’minoti katta ahamiyatga ega. Shu sababli bu sohada amaliy kelishuvlar paydo bo‘lishi yangi regionalizmning yetukligini ko‘rsatadigan sinovdir. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 750

million kVt-soat elektr energiyasini o‘zaro yetkazib berish kelishuvlarini, Zarafshon daryosidagi gidroenergetika loyihalarini va O‘zbekistonning Qambarota hamda Rog‘un loyihalarida qatnashishga tayyorligini yangi hamkorlik belgisi sifatida ko‘rsatilgan edi. Bu misollar eski “suv yoki energetika” qarama-qarshiligidan “suv va energetika” manfaatlarini bir paketda ko‘rishga o‘tish boshlanganini ko‘rsatdi. Keyingi yillarda bu yondashuv kengaydi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Qambarota GES-1 loyihasini birgalikda amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirdi. O‘zbekiston va Tojikiston Zarafshon havzasidagi Yovon va Fondaryo GESlari bo‘yicha ishlarni davom ettirmoqda. O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston Bahri Tojik suv omboridan vegetatsiya davrida kelishilgan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqdi. Turkmaniston bilan Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha hukumatlararo kelishuv ham mavjud. Bu loyihalar barcha muammolar hal bo‘ldi degani emas. Suv tanqisligi, muzliklarning qisqarishi va iqlim o‘zgarishi bosimi kuchaymoqda. Mintaqaning post-karbon rivojlanishi milliy energetika islohotlari bilan mintaqaviy hamkorlikni birlashtirishini talab qilishini ko‘ramiz. Elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya, transchegaraviy suv boshqaruvi va metan chiqindilarini kamaytirish kabi vazifalar bir davlat doirasida to‘liq hal bo‘lmaydi. Shu yerda yangi regionalizmning amaliy mantig‘i aniq ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bourdais Park, J. (2025). Competitive institutionalized cooperation in Central Asia and externally guided regionalism. Central Asian Survey, 1-22. https://doi.org/10.1080/02634937.2024.2441803

2. Costa Buranelli, F. (2025). Central Asian regionalism in the 1990s: Order, familiarization, and spotlighting. Post-Soviet Affairs, 41(4), 348-375. https://doi.org/10.1080/1060586X.2025.2516188

3. Costa Buranelli, F. (2026). The Consultative Meetings of Heads of State of Central Asia: Local norms, institutions and the fundamentals of regional order. International Affairs, 102(1), 121-145. https://doi.org/10.1093/ia/iiaf225

4. Dannreuther, R. (2026). The revival of regionalism in Central Asia. Central Asian Affairs, 13(1), 92-117. https://doi.org/10.30965/22142290-bja10081

5. Grishin, V. (2025, November 24). Central Asia in transition: New regionalism, geopolitical realignment, and the post-carbon future (PONARS Eurasia Policy Memo No. 949). PONARS Eurasia.

6. Izteleuova, Y. (2026). Coordination of bilateral and multilateral cooperation in Central Asia under conditions of polycrisis. Frontiers in Political Science, 8, 1814186. https://doi.org/10.3389/fpos.2026.1814186

7. Karami, J., & Mozaffari-Falarti, M. (2026). Inter-regionalism and strategic adaptation in Central Asia: Economic development and geopolitical resilience in a multipolar order. Central Asian Survey. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/02634937.2026.2629585

8. Khasanov, U. (2021, November 1). New regionalism in Central Asia. Valdai Discussion Club. https://valdaiclub.com/a/highlights/new-regionalism-in-central-asia/

9. Khasanov, U. (2025, March 4). Synergy of new regionalism. Valdai Discussion Club. https://valdaiclub.com/a/highlights/synergy-of-new-regionalism/

10. Kobilov, F. (2025). From geopolitical pendulum to regional player: Uzbekistan's regional foreign policy following the leadership change in 2016. Central Asian Survey, 1-21. https://doi.org/10.1080/02634937.2025.2482186

11. Masharipov, J., & Khasanov, U. (2025). "Uzbekistan-2030": A dual pursuit of economic diplomacy and regional integration for sustainable development in Central Asia. Journal of Central Asian Studies, 23(3), 74-89. https://doi.org/10.52536/3006-807X.2025-3.004

12. Mirziyoyev, S. M. (2025, November 13). Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/lists/view/8653

13. Mukasheva, Z., Akhmedyanova, D., & Nogayeva, A. (2026). Four voices, one region: Local and Western media coverage of regional relations in

Central Asia. Central Asian Survey. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/02634937.2025.2611917

14. Muratalieva, Z. (2026). Unpacking regionalism in Central Asia: Internal and external C5+1 formats. Central Asian Affairs, 13(1), 64-91. https://doi.org/10.30965/22142290-bja10080

15. Ostrowski, W., & Malikov, A. (2025). Energy rents, remittances and regional trade cooperation in Central Asia. Europe-Asia Studies, 77(5), 798-827. https://doi.org/10.1080/09668136.2025.2512119

16. Reuters. (2025, March 13). Kyrgyzstan and Tajikistan sign deal to end long-running border dispute. Reuters. https://www.reuters.com/world/asia-pacific/kyrgyzstan-tajikistan-sign-deal-end-long-running-border-dispute-2025-03-13/

17. Utebayev, A., Orinbay, K., Mukhamedkaziy, N., & Bagdat, A. (2026). Uzbekistan's regional turn: Comparing Karimov and Mirziyoyev's approaches to Central Asia. Eurasian Research Journal, 8(3), 297-324.

18. Yelmagambetova, G., Dalelkhan, A., & Lodhi, R. N. (2025). Bibliometric analysis of thematic networks in Central Asian integration literature: Trends, clusters, and emerging research directions. Journal of Central Asian Studies, 23(1), 95-111. https://doi.org/10.52536/3006-807X.2025-1.006